

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.I.Nosirova, L.A.Ernazarova	
Nasriy matnlardagi sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik jihatlari.....	212
O.I.Yadgarova	
Shaxsni o'rganishda proyektiv metodikalarning afzalliklari tahlili	216
O.M.Xalimova, A.A.Xusanov	
Ovoz buzilishlari: ovoz buzilishlarini turlari va kelib chiqish sababları	221
D.X.Turdiboev	
O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ahamiyatatlilik darajasi.....	224
Sh.D.Ismoilov	
O'smir yoshdagи o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash kompetensiyasini shakllantirishning tamoyillari	227
S.A.Yaxyayeva	
Yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirishning tarixiy zaruriyati va mafkuraviy asoslari.....	231
B.B.Nizomova, O.T.Sobirov, G.G'.Xomidova	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar. Protistalar. Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahmiyati	236
G'.B.Samatov, S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash.....	248
X.R.Saidova	
Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari.....	254
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari	259
Sh.H.Yusupaliyeva	
Texnik oliy o'quv yurtlarida chet til darslarini tashkillashtirishda o'g'zaki nutq kompetensiyasini samarali qo'llash usullari	263
X.R.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	266
X.M.Madazimov	
Bir hikoya talqinida bosh qahramon qiyofasi	274
B.T.Yunusaliyev	
Modus kategoriyasining modallilikni o'rganishdagi ahmiyati.	277
K.I.Qosimov	
Abdulla Qodiriy – XX asr genisi	280
M.A.Xusanova, M.A.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir.....	287
M.O.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar.....	290
N.S.Qobilova, M.T.Hojiyeva	
Umumiy taqiqlovchilar va ularning komponentlari.....	293
A.M.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	297
Z.V.Alimova, U.A.Soxibova	
Frazeologik birliklar va ularning semantik tahlili.....	300
I.I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	305
B.A.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	310
Z.H.Usmonova	
Rey Bredberining "Marsga Hujum" ("the martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari	315
A.M.Mamarasulov	
Osmon va yer tushunchalarining qiyosiy semantik tadqiqi.....	319
L.X.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahmiyati	322

TALABALARDA EKOLOGIK AXLOQIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ НРАВСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

OPPORTUNITIES FOR FORMING ENVIRONMENTAL AND ETHICAL COMPETENCE OF STUDENTS

Hamraqulov Jahongir Baxtiyorovich¹

¹Hamraqulov Jahongir Baxtiyorovich

– Farg'ona davlat, universiteti texnologik ta'lim kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirishning xorij tajribasi va milliy ta'lim imkoniyatlari, ularda ekologik axloqiy mas'uliyatni shakllantirish va ularning tabiatga hurmatini shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy-pedagogik vazifalar haqida fikr yuritiladi, ekologik faoliik va mas'uliyatni tarbiyalash muammolari bayon etiladi.

Аннотация

В данной статье отражены зарубежный опыт и отечественные образовательные возможности формирования экологической нравственной компетентности учащихся, социально-педагогические задачи, связанные с формированием у них экологической нравственной ответственности и бережного отношения к природе, проблемы воспитания экологической активности и ответственности.

Abstract

This article presents the foreign experience and national educational opportunities for the formation of environmental moral competence of students, social and pedagogical tasks associated with the development of their environmental moral responsibility and respect for nature, the issues of educating environmental activity and responsibility.

Kalit so'zlar: ekologiya, etika, kompetentlik, ekologik etika, ekologik ong, ekologik huquqiy norma, ekologik axloqiy munosabat, ekologik axloqiy kompetentlik, ekologik stereotip, ekologik faoliik.

Ключевые слова: экология, этика, компетентность, экологическая этика, экологическое сознание, эколого-правовая норма, эколого-этическая установка, эколого-этическая компетентность, экологический стереотип, экологическая деятельность.

Key words: ecology, ethics, competence, ecological ethics, ecological consciousness, ecological legal norm, ecological and ethical attitude, ecological and ethical competence, ecological stereotype, ecological activity.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida ekologik axloqiy bilim va ko'nikmalarni yoshlarga tizimli singdirib borish amaliyoti O'zbekistonda nisbatan barvaqt boshlangan. Shimoliy Yevropa va Amerika mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasidan uning holatini hamma bosqichda nazorat qilishga tomon qaratildi. Mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarining barcha sohalarida atrof-muhit muhofazasi masalalari kiritilganligi nazoratga olinib, insoniyatning atrof-muhitdag'i barcha faoliyati barqaror rivojlanish tamoyillarida to'liq mos kelishiga xalqaro hamjamiyat e'tibori kuchaytirildi. Yangicha yondashuvning diqqatga sazovor tomonlaridan biri jamoatchilikga turli xil ekologik axborotlarni erkin olish va tarqatishlariga keng huquqlar berilganligidadir. Shuningdek, ekologik axloqiy munosabatni shakllantirishni hukumat darajasidagi ish sifatida ko'rish, katta-yu kichikni tabiatga g'amxo'rtlik qilishga yo'naltirish dolzarb vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Hozirgi kunda ekologik etika turli fan sohalarining bevosita yoki bilvosita tadqiqot obyektiga aylandi, uning tarkibidan bir qator yo'nalishlar ajralib chiqib, alohida fan sifatida shakllanmoqda. G'arb mamlakatlari tadqiqotchilaridan A.D.Ursul, F.I.Girenok ishlarida ekologik mas'uliyatni shakllantirish muammolari, M.M.Budiko, J.Dorst, G.Uayt, G.Xefling, G.S.Xozin asarlarida ekologik faoliik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash masalalari tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida ham ekologik etika va uning zamonaviy muammolarini tadqiq etish masalalari o'tgan asrning boshlarida maydonga kela boshlagan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan yo'nalish hisoblanadi. Ekologik etikaning falsafiy jihatlarini tizimli ravishda kompleks o'rganish, mavjud empirik, statistik, sotsiologik axborotlarni umumlashtirish, ularning universallahsgan, nazariy-metodologik asoslarini yaratish zaruriyat V.S.Arefeva, B.A.Voronovich,

E.V.Girusov, V.D.Komarov, A.Z.Pankratovlarning ishlarida; tabiatni muhofaza qilish strategiyasi va taktikasi hamda bu jarayonlarning turli mamlakatlardagi o'ziga xos xususiy jihatlari, shuningdek, umumiylit qonuniyatları V.V.Motilev, Z.N.Navruzov, Y.V.Oleynikov, K.N.Smirnovlarning tadqiqotlarida; ekologik mas'uliyat genezisining retrospektiv xususiyatlari S.S.Batenin, V.N.Ivanov, V.K.Raxlin, P.A.Sorokin, A.Xukumovlarning asarlarida, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekologik mas'uliyatning ahamiyati V.F.Baratov, M.Y.Lemeshev, Y.Mikolash, P.G.Oldak, V.I.Saxarevlarning ilmiy tadqiqotlarida, ekologik ijtimoiy-siyosiy faoliyat va fuqarolik mas'uliyatining jamiyat demografik, etnografik xususiyatlari V.A.Anuchin, S.Ziyoyev, S.K.Kamolov, L.Levi, V.M.Fedorovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiylit muammosiga aylandi[1;3;4;14]. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik rivojlanmoqda va takomillashmoqda[1]. Ayni vaqtda, yurtimizda ekologik etika muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda. O'zbek olimlaridan Z.Abdullayev, A.Nigmatov, L.Abdunazarov, Sh.Muhamedov, I.Hoshimovalar tomonidan ekologik mas'uliyat, ekologik axloqiy qadriyat, ekologik ta'lif-tarbiya metodikasiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan[2;5;6;7;8;9;10;11;12;13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, nazariy va qiyosiy tahlil, ijtimoiy so'rov (anketa, suhbat, intervyu, tashxis), pedagogik kuzatish, modellashtirish, baholash, umumlashtirish va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik axloqiy ta'linda atrof-muhit haqida, atrof-muhit yordamida va atrof-muhit uchun ta'limgari mavjud. Bu uch komponent ekologik axloqiy ta'lif va tarbiyaning bo'laklangan masalalarini bir butun yechimini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ekologik axloqiy ta'limga ayrim ko'rinishlari umumiylit o'rta ta'linda biologiya, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarga integratsiya qilingan va ekolog-pedagoglar tomonidan olib borilmaydi. Ekologik vaziyatlar, atrof-muhitni asrab-avaylash to'g'risida ma'lumotlar berilsa-da, ekologiyaga axloqiy munosabatni shakllantirish to'g'risidagi bilim va ko'nkmalar shakllantirilmaydi. Mazkur fanlar aksariyat holda turdosh fan o'qituvchilarini tomonidan olib boriladi.

Xuddi shunday holat olyi ta'linda ham aynan namoyon bo'ladi. Integratsion ta'limga ommalashuvi bilan, asta-sekin tabiatshunoslik fanlari hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi yuzaga kelmoqda va bu olyi ta'linda ekologik axloqqa doir ekoetika fanlarini yuzaga keltirmoqda. Dunyo tajribasidan foydalanish va bunday noekologik ta'lifni bartaraf qilish maqsadida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, ularning ahamiyatlari jihatlarini milliy ta'lif tizimiga olib kirish muhim pedagogik vazifalardandir.

Ekologlar kasbiy kompetensiyalarining shakllanish modeli – ekologik ta'limga tarkibiy qismalarining o'zaro bog'liqligi. Bu ekolog mutaxassislar kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy talab bilan bog'liq. Masalan, texnik-ekologlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun yaratilgan modelning asosiy xususiyati – mazkur tarkibiy qismalarning integratsiyalashdan iborat bo'lib, u ta'lif jarayonini kompleks yo'naltirilganligidan mutaxassislarni shakllantirishni kuchaytiradi. Natijada: *Birinchidan*, ekologik ta'lif jamiyat rivojining asosiy omillaridan biri ekanligini bildiradi. Ekologik ta'lif insonlarni tabiatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga qaratilgan fikrlashuvga, xulq va atvor stereotiplarining shakllanishiga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, har bir davlat va inson tomonidan kasbiy etikaning yangi tamoyillarini qabul qilishga, madaniyat va adolatga, ba'zi bir cheklovlarining o'rnatilishiga, ekosfera qonunlarining rivojiga qaratilgandir. *Ikkinchidan*, bu holat ekologning kasbiy kompetensiyasi uchun pedagogik sharoitni shakllantirishni aniqlashtiradi. *Uchinchidan*, ekologik ta'lif modelining tuzilishi texnologik algoritmi kelajakda ekologik ta'lifni joriy etishni tashkil etadi. *To'rtinchidan*, ekologik ta'lif jahon standartlariga javob berishga yo'naltiradi va ekologlarda shu jarayonni ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruva va axborot-analitik faoliyatlarini bilan bog'lashni sinflashtiradi. *Beshinchidan*, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ekologik ta'limga tez moslashuvchanligini ko'rsatadi. *Oltinchidan*, ilm-fan bilan birga ekologik madaniyatni ham rivojlantiradi. Bular, o'z navbatida, hayotiy tajribalardan kelib chiqadi va axloqiy prinsiplarga yondashadi. Demak, xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik ta'lif nafaqat ixtisoslikka tomon yo'naltirilgan, balki u yuksak ekologik ma'naviyatlari shaxs tarbiyasiga ham qaratilgandir. Xorijiy mamlakatlarda ekologik ta'lif va tarbiya milliy mentalitet va regional xususiyatdan kelib chiqqan tarzda olib borilmoqda. Shuning uchun ham ekologik ta'lif va tarbiya har bir davlat va mahalliy sharoitdan kelib chiqqan uning normativ asoslari yaratiladi.

Oliy ta'linda ekologik ta'lif tabiat muhofazasi masalalarining ilmiy asoslarini chuqur va har tomonloma o'rganish, inson faoliyatini natijasida biosferada ro'y berayotgan hodisalarining sabab va

ILMIY AXBOROT

qonuniyatlarini tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi ekologik huquqiy mas'uliyatni shakllantirish talab etiladi. Ekologik huquqiy mas'uliyat funksiyalaridan biri – talabaning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini, amaliy xatti-harakatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini regulyatsiya qilishdan iborat. Ijtimoiy mas'uliyat muammosining tadqiqotchilaridan biri V.I.Speranskiy fikriga ko'ra, mas'uliyat hissining shakllanishi bilan insonning shaxsga aylanishi, uning ijtimoiy faolligi boshlanadi”[15;148-b]. Bunda muallif, mas'uliyatni shaxs shakllanishining asosi deb bilgan va uning sifatini belgilaydigan mezon darajasiga ko'targan. Vaholanki, mas'uliyat hissining har qanday darajasi yoki shakli «inson sifatini» belgilashga da'vogarlik qila olmaydi. Ekologik mas'uliyat ham ekologik tartib-qoidalarning qattiqligi, jazoning muqarrarligi bilan emas, unga ichki hurmatning mavjudligi bilan belgilanadi. Shu bois, talabalarda ekologik axloqiy mas'uliyatni shakllantirish va ularning tabiatga cheksiz hurmatini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardandir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ekologik huquqiy normalar nisbatan turg'un, buning mazmunini esa uning doimiy rivojlanib borishi bilan izohlash kerak, lekin amaliyotda hamma vaqt shunday bo'lavermaydi. Ekologik huquqiy normalarning o'ziga xos muhim xususiyati: *birinchidan*, ekologik munosabat subyektlarining faoliyklarini maqsadga muvofiq yo'naltirilishi bilan xarakterlanadi, ya'ni u ekologik faoliyatning doirasini, tartibini, tashkiliy bog'lanishlarini belgilab turadi. *Ikkinchidan*, boshqa ijtimoiy munosabatlarni reglamentlashtirishda ichki e'tiqod, jamoatchilik fikri ustuvor xarakterga ega bo'lsa, ekologik huquqiy normalar, asosan, davlatning “majburlash”, ta'qilash kuchlariga tayanadi. Aynan shunda, uning samaradorligi ham, ojizliklari ham namoyon bo'ladi. Xususan, bugungi kunda ekologik huquqiy normalarning, aklarning nisbatan turg'unligi ekologik vaziyatning dinamik rivojlanish talablaridan orqada qolishiga olib kelmoqda. Buning ustiga, ekologik huquqiy normalar antiekologik xatti-harakatlarni baholashda aniq mezonlar majmuasiga ega emas. Shuning uchun ham talabalarda ekologik axloqiy normalarga hurmat va munosabatni shakllantirish, majburlash emas, g'amxo'rlikka asoslangan munosabatni shakllantirish talab etiladi.

Shuningdek, talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda ularning jamiyatning bir a'zosi sifatidagi ekologik nazorat mas'uliyatini ham shakllantirish talab etiladi. Ekologik monitoring muayyan uslublar yordamida ekologik vaziyatni, uning rivojlanish tendensiyasini aniqlab, «sof» texnik-texnologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lsa, “ijtimoiy-ekologik nazorat” – inson va jamiyatning tabiatga ta'sir faoliyatini, “sof” subyektiv omillarning munosabatlarini nazorat qilish, uni takomillashtirish yo'nalishlarini ko'rsatish funksiyalarini bajaradi.

Jamiyat rivojlanib borishi bilan rasmiy ekologik nazorat funksiyalari takomillashuvi, insoniyatning, biosfera muvozanatini saqlab qolishdan iborat, ekologik ehtiyojlar darajasiga mos keladi. Shu bilan birgalikda, norasmiy ijtimoiy-ekologik nazorat ham umuminsoniy axloqiy tamoyillar va qonunlarda mustahkamlanib, u o'z funksional faoliyat doirasini kengaytirib boradi, ya'ni ekologik mas'uliyatni anglashda insonning ichki ma'naviyati bilan bog'liq: «uyat», «burch», «vijdon», «e'tiqod» kabi motivlarning roli kuchayadi.

Respublikamizda ekologik vaziyatni nazorat qilishning zamonaviy texnik vositalariga ega bo'lgan mukammal tizimini yaratib, uning tashkiliy jihatlarini kuchaytirish dolzarb muammo bo'lib turibdi. Jahon miqyosida, rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan ekologik kosmik nazorat tizimiga a'zo bo'lish imkoniyatlarini qidirib topish lozim. Bundan tashqari, umumiylar ekologik vaziyat haqida axborot markazi – ekologik axborotlar, ma'lumotlar bankini tashkil qilish kun tartibida turibdi.

Talabalarning ekologik vaziyatni keskinlashtiruvchi antropogen ta'sir haqidagi haqqoniy axborotlarga ega bo'lishi norasmiy nazorat ko'lами, yo'nalishini belgilaydi va uning natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Talabalarda ekologik vaziyat haqida to'liq, obyektiv axborotlarning yetishmasligi, “informatsiya qashshoqligi” tabiatni huquqiy muhofaza qilish vazifasining tashkiliy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi, ya'ni oshkora ma'lumotlarning mavjudligi jamiyatning “tabiiy muhitga munosabatini belgalashi va inson sog'lig'ini saqlashi uchun zarur”[15]. Ta'kidlash kerakki, hamma sohada bo'lgani kabi, tabiatni huquqiy muhofaza qilishda ham yetarli, obyektiv informatsiya bo'lmasa, dezinformatsiya vujudga keladi. Shu bois, talabalarda ekologik vaziyat to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi ularda axloqiy munosabatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni rivojlantirishda ulardagi ekologik stereotiplarni o'rganish, ijobiy jihatlarini takomillashtirish va ta'lim tizimida foydalanish, salbiy ekologik mas'uliyatsizlikni, xudbinlikni keltirib chiqaruvchi, ekologik muammolarni yuzaga keltiruvchi, loqaydlikni oshiruvchi stereotiplarni bartaraf etish talab etiladi. Ekologik stereotiplar nisbatan turg'un bo'lib, oldingi avlod tajribalarini umumlashtirish jarayonida, mavjud ekologik hayot tarzining mazmuniga aylanadi. Ekologik stereotiplar retrospektiv planda, yuzaki qaraganda, ekologik vaziyatlarga mos keladigan faoliyk va mas'uliyatni huquq vositasida chegaralaydigan hodisa bo'lib ko'rinadi, lekin aynan shu ekologik

stereotiplarning amalda namoyon bo'lishi, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi faoliik va mas'uliyatni ifodalaydi. Ijtimoiy birliklarning mavjudlik xususiyatlariiga mos ravishda ekologik preventiv nazoratning turli uslub va vositalardan foydalanuvchi bevosita yoki bilvosita shakllari mavjud bo'lib, ekologik normalar, tamoyillar, tartib-qoidalar majburan tatbiq etilmasdan, balki ekologik onglilik, o'z-o'zini nazorat qilish – faoliik va mas'uliyatning zaruriy shartiga aylanadi. Ma'lum ma'noda, ma'muriy va huquqiy nazorat vositalari hamda uslublari antiekologik faoliyatni chegaralasa-da, lekin ekologik faoliik va mas'uliyat hissini kuchaytirishga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bunday xatti-harakatlarni, shart-sharoitlarini bartaraf etishda faoliik va mas'uliyatni oshiradigan omillarning rolini kuchaytirish kerak bo'ladi.

XULOSA

Ekologik faoliik va mas'uliyatni kuchaytirishning huquqiy omillari, o'zicha, shu xislatlarning "inson sifatiga" aylanishini bildirmaydi. Buning uchun, ekologik faoliik va mas'uliyatni tarbiyalash muammosiga davlat miqyosida majmuaviy-tizimli tarzda yondashib, uni umummilliy mafkura ishining markaziga ko'chirilishi muhimdir. Ayniqsa, ekologik faoliik va mas'uliyat, hozircha, ommaviy tus olmagan vaziyatda, bevosita shu sohada ishlayotgan kishilarning kasbiy faolligini va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifadir. Chunki, birinchidan, kasbiy darajada ekologik faoliik va mas'uliyatni oshirish, shu xislatlarni keng xalq ommasiga transformatsiya qilish vositasi hisoblanadi; ikkinchidan, hozircha jamiyatda uning barcha a'zolarining ekologik faolligini va mas'uliyatini oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy, texnikaviy, tashkiliy imkoniyatlar chegaralangan; uchinchidan, kasbiy ekologik faoliik va mas'uliyat, o'z «sifatiga» ko'ra, boshqa ijtimoiy qatlamlar uchun andoza rolini bajaradi.

Xulosa qilganda, talabalar ongiga, turmush tarziga tabiatni muhofaza qilishning ahamiyatini singdirish kerak. Bu faoliyat tabiatni muhofaza qilishning tarixiy meroslarini, qadriyatlarini, vorislik tamoyillariga ko'ra, konkret ekologik vaziyat xususiyatlardan kelib chiqib, ijodiy rivojlantirishga asoslanadi. Uning samaradorligini ko'tarish uchun ta'limg-tarbiyaning hamma bo'g'inlarini, bosqichlarini ekologiyalashtirish orqali ekologik tafakkurni rivojlantirish, ommaning ekologik siyosiy faolligini oshirish zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 may 434-sonli «O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limg rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2019 y., 09/19/434/3189-son).
2. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Ташкент: Зиё. – 2004.
3. Банба-Церера В.Р. Становление экологической этики. Москва: СК Сфера. – 1992.
4. Монсеев Н.Н. Экология и образование. М.: ЮНИСАМ. – 1996.
5. Nigmatov A. Ekologiya nima. Toshkent: TDYUI nashriyoti. – 2002.
6. Nigmatov A. Ekologiyaning nazariy asoslari. Toshkent. – 2013.
7. Nigmatov A., Abdunazarov L., Muxamedov Sh. Kasbiy ekologik ta'limg va tarbiya. Toshkent: Iqtisodiyot-moliya. – 2016.
8. Nigmatov A.N. Milliy kasbiy ta'limgda uzuksiz ekologik ta'limgning asosiy muammolari va istiqbollari / Milliy kasbiy ta'limgda uzuksiz ekologik ta'limg tizimining ilmiy asoslari: muammolari va istiqbollari. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: O'zMU nashriyoti. – 2012.
9. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M. Ekologik ta'limgning metodologik asoslari // Geografiya jamiyatni ilmiy jurnalni. Toshkent. – 2016. №49.
10. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M., Tobirov O.Q. Ekologik ta'limg va tarbiyada xorijiy tajriba / Farg'ona vodiysi resurs salohiyatidan foydalanishning geoekologik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumanasi. Farg'ona. – 2017.
11. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M., Muxamedov Sh.N. Kasbiy ekologik ta'limg va tarbiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. – 2016.
12. Хошимова И. Диалектика глобального, регионального и локального в экологии: Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. – Ташкент. – 1992.
13. Abdunazarov L.M. Ekologik ta'limg intellektuallashtirish zaruriyati va yo'llari / Geografiya XXI asrda: muammolar, rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. Samarqand. – 2017.
14. www.econews.uz - O'zbekistonning ekologik sayti.
15. Сперанский В.И. Социальная ответственность личности: судность и особенности формирования.- Москва.: Наука. 2006.- С.148.